

ARAB GAZETALARIDA RIVOJLANISH, TASHRIF VA MUZOKARALARGA OID XABARLARNING STILISTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Rajaboyeva Gulnora Jamoliddin qizi

Oriental universiteti arab filologiyasi

fakultetining 3-bosqich talabasi

Fayziyev Shamsuddin Sadriddinovich

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ish arab gazetalarida rivojlanish, rasmiy tashriflar va diplomatik muzokaralarga oid xabarlarining stilistik va grammatik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda arab matbuoti tilining rasmiy-diplomatik uslubi, leksik qo'llanmalari, takroriy terminlari hamda sarlavha qurilishidagi asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, siyosiy yangiliklarda keng uchraydigan fe'l-fa'il tartibi, majhul fe'llar, masdar shakllari, izofa konstruksiyalari va murakkab bog'lovchi birliklar kabi grammatik vositalarning qo'llanish tamoyillari ochib beriladi. Tadqiqot davomida diplomatik nutqning obyektiv, neytral va rasmiy ohang yaratishdagi leksik-grammatik vositalari yoritiladi hamda arab OAVlaridagi axboriy matnlarning kompozitsion tuzilishi ham tahlil qilinadi. Mazkur ish arab tilidagi siyosiy matnlarning lingvostilistik xususiyatlarini anglash, ularni tahlil qilish va tarjima jarayonida to'g'ri tatbiq etish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi. Arab gazetolari siyosiy va ijtimoiy bilimni oshirosh, yangi tushunchalarni ommalashtirish, va yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda katta rol o'ynaydi, shu bois ular nafaqat axborot manba, balki siyosiy bilim va manba, balki siyosiy bilim va manbani rivojlantiruvchi muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: arab matbuoti, rasmiy unvonlar, stilistik tahlil, jurnalistika uslubi, arab gazetolari, tizim matbuoti.

Abstract . This research focuses on the stylistic and grammatical features of news reports in Arab newspapers related to development, official visits, and diplomatic negotiations. The study analyzes the formal–diplomatic style of the Arabic press, its lexical features, frequently used diplomatic terminology, and the characteristic patterns found in headline construction. It also explores the functional use of linguistic elements commonly employed in political and diplomatic news, such as the verb–subject structure, passive verb forms, verbal nouns (masdars), idāfa constructions, and complex connectors. Furthermore, the research examines the linguistic tools that create an objective, neutral, and formal tone in diplomatic discourse, as well as the compositional structure of informational texts in Arab mass media. This study provides a scientific and practical basis for understanding the linguostylistic features of political texts in Arabic and for effectively applying this knowledge in analysis and translation. Arab newspapers play an important role in increasing political and social awareness, popularizing new concepts, and engaging young people in political processes. Therefore, they are not only a source of information, but also a significant means of developing political knowledge and shaping political understanding.

Keywords: arab press, official titles, stylistic analysis, journalism style, arab newspapers, systematic press.

Arab gazetlari tili — bu kichik til materialida katta axborotni bera oladigan o‘ziga xos mikrotizimdir. Bu mikrotizimning unsurlari muayyan tarzda bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan: bir tomondan unga zamonaviy arab tili normalari, boshqa tomondan uslub hosil qiluvchi ekstrolingvistik (ekspressivlik, hissiyotlilik, ta’sirchanlik va hk.) hamda tilga oid ichki omillar (til vositalarini tejash va hk.) ta’sirini ko‘ramiz.¹¹⁰

Arab gazetalarida siyosiy va diplomatik yangiliklar rivojlanish, rasmiy tashriflar va muzokaralarga oid voqealarni yoritishda muhim o‘rin tutadi. Bunday xabarlar nafaqat voqea haqida axborot beradi, balki siyosiy bilimni oshirish, yangi

¹¹⁰ <https://moluch.ru/archive/438/95873>

Grammatik xususiyatlariga keladigan bo‘lsak, u bir necha qismga bo‘linadi: Birinchisi fe’l–foil tartibi. Odatda arab diplomatik matnlar fe’l bilan boshlanadi. Masalan: عقد الوزيران مباحثات موسعة – “Shoh delegatsiyani kutib oldi”; –استقبل الملك الوفد – “Ikki vazir keng qamrovli muzokara o‘tkazdi”.

Ikkinchisi majhul fe’llar – bunda shaxs e’tibordan chetda qolishi, jarayon va voqea ustun turishi kerak bo‘lsa, majhul fe’llar ishlatiladi. Masalan: –تم توقيع الاتفاقية “Bitim imzolandi”; –أعلن عن مشاريع جديد “Yangi loyihalar e’lon qilindi”.

Uchinchisi, Masdarlar va izofa konstruksiyalari. Masdarlarga misol keltiradigan bo‘lsak: –تطوير –rivojlantirish, –تعزيز –mustahkamlash, –استئناف –qayta boshlash. Izofada esa: –سبل تعزيز التعاون الاقتصادي “iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash yo‘llari”; –مجالات تطوير الاستثمارات المشتركة “qo‘shma investitsiyalarni rivojlantirish sohalari”.

To‘rtinchisi, murakkab bog‘lovchilar. Ular xabarlarini mantiqan bog‘lash uchun ko‘p ishlatiladi. Masalan: –من ناحية أخرى, bundan tashqari, بالإضافة إلى ذلك, shuningdek, –كما –boshqa tomondan, –وفي هذا السياق shu munosabat bilan.

Va oxirgisi takroriy terminlar – bunda xabarlarda diplomatik va siyosiy terminlar muntazam takrorlanadi, bu matnga rasmiylik va ohang uyg‘unligini beradi.

Arab gazetalaridagi xabarlar o‘z mazmunini yoqotmasligi, shu jumladan insonlarga tez va ravon o‘qiladigan, sodda va tushunarli tilda yozilgan, tuzilishi tartibli, ma’lum bir qolibga solingan bo‘lishi lozim. Ayniqsa, diplomatik xabarlar va shu bilan birga barcha arab gazetalaridagi xabarlar quyidagi tartibda yoziladi:

1. Kirish – voqea, joy va asosiy shaxslar haqida qisqacha ma’lumot: أجري الرئيس أمس في العاصمة ... مباحثات رسمية
2. Asosiy qism – muzokara mavzulari, kelishuvlar, kelajak rejalar;
3. Yakuni – tomonlarning do‘stona munosabati, hamkorlikni davom ettirish istagi.

Arab gazetalarida siyosiy va diplomatik xabarlar nafaqat voqea haqida axborot berish bilan cheklanmaydi, balki ular siyosiy bilimni oshirish, yangi tushunchalarni ommalashtirish va yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, arab matbuoti o‘z o‘quvchilariga

dunyoqarashni shakllantirish va siyosiy tafakkurini rivojlantirish imkonini yaratadi. Siyosiy va diplomatik xabarlar tahlili ularning stilistik va grammatik xususiyatlarini chuqur anglash imkonini beradi.

Arab gazetalar siyosiy va ijtimoiy bilimni oshirish, yangi tushunchalarni ommalashtirish, yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois ular nafaqat axborot manbai, balki siyosiy bilim va dunyoqarashni rivojlantiruvchi vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Ular siyosiy qarorlarni tushunish va baholashga yordam beradi. Yoshlar va keng jamoatchilik siyosiy jarayonlar bilan tanishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibrohimov N, Yusupov M “Arab tili grammatikasi” 1- jild. Namangan nashriyoti 2009 yil.
2. Ash-Shuruq (الشروق), Al-Khabar (الخبير), An-Nahar (النهار), Ash-Shaab (الشعب) – jazoir matbuoti sahifalaridagi siyosiy maqolalar va tahlillar.
3. Haddod L. Yaqin Sharq matbuoti tarixi. Bayrut: An-Nahar Publishing, 2012.
4. Mahmudov A. OAVda siyosiy terminologiya taraqqiyoti. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
5. Hassan R. Arab ommaviy axborot vositalarida siyosiy lug‘atning rivoji. Arab World Studies Review, 2020.
6. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
7. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
8. Жўраева, М. (2022). «Ал-фавоиду-з-зиёиййа» ва «Кофия» асарларида феъл туркумининг ёритилиш принциплари. *Востоковедение*, 14(2), 58-65.

9. Rahimjonov, M. (2026). THE ROLE OF WESTERN SCHOLARS IN STUDYING THE LIFE AND SCIENTIFIC HERITAGE OF CENTRAL ASIAN SCHOLARS AND THINKERS. *Journal of Social and Theological Studies*, 1(1), 5-13.
10. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
11. Mamajanova, V. Arab Tilini O ‘qitishda Yozma Nutq Ko ‘nikmasini Shakllantirishning Metodik Asoslari Va Zamonaviy Yondashuvlar. *Maktabgacha va Maktab Ta’limi Jurnali*, 676270.
12. Raxmonov, A. K. (2023). Oliy ta’lim muassasalarida arab tilini o‘qitishning zamonaviy usullari. In “Bir makon, bir yo‘l” (SIRCON 2023) xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (pp. 1848–1853). Alfraganus University.
13. Raxmonov, A. K. (2025). Manbalar asosida Mitarriziy va Mutarriz ilmiy faoliyatining o‘rganilishi. *Til va adabiyot.uz*, (12), 247–248.
14. Raxmonov, A. K. (2024). Creating favorable ecosystems for youth entrepreneurship in Uzbekistan. In *Collection of Articles of the International Scientific Conference on the Topic of “The Future of Youth and Entrepreneurship in Education” Within the 10th UNESCO–APEID (Educational Innovations Programme for Asia-Pacific Development) Meeting on Entrepreneurship in Education* (pp. 67–71). Alfraganus University.
15. Qo‘chqarovich, K. U. (2026). REY BREDBERINING “ERTAGA QIYOMAT” HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM. " *Alfraganus" xalqaro Ilmiy Jurnali*, 3(4), 11-21.
16. Qo‘chqarovich, K. U. (2025, October). REY BREDBERI VA HOJIAKBAR SHAYXOV IJODIDA BADIY PSIXOLOGIZM TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 461-464).